



UDK:316.3:502/504:17

Abdulla BAYESHANOV,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: bayeshanov_2020@mail.ru

FDTU katta o‘qituvchisi, PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA BIOSENTRIZM VA EKOLOGIK VIJDON OMILINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada bugungi ekologik inqiroz sharoitida insonning tabiat oldidagi mas’uliyati, biosentrizm tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ekologik vijdon bilan bog‘liqligi, xususan, mamlakatimizda mavjud ekologik muammolar xalqimiz ma’naviyati va ekologik vijdon tushunchasi bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik muammolarni hal qilish va inqirozdan chiqishda faqatgina huquqiy yechimlar yetarli emasligi, jamiyat mas’uliyatini oshirish zarurligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Antroposentrizm, biosentrizm, ekologik vijdon, hayot markazi, ekologik axloq, havo sifati, ekologik tarbiya.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ БИОСЕНТРИЗМА И ФАКТОРА ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СОВЕСТИ В ПРЕОДОЛЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье в условиях современного экологического кризиса анализируется ответственность человека перед природой, раскрывается сущность и содержание понятия биосентризма, а также его взаимосвязь с экологической совестью. В частности, существующие экологические проблемы в нашей стране рассматриваются в контексте духовности народа и понятия экологической совести. Кроме того, обосновывается, что для решения экологических проблем и выхода из кризиса одних лишь правовых механизмов недостаточно, и подчеркивается необходимость повышения социальной ответственности общества.

Ключевые слова: Антропоцентризм, биосентризм, экологическая совесть, центр жизни, экологическая этика, качество воздуха, экологическое воспитание.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF BIOCENTRISM AND THE FACTOR OF ECOLOGICAL CONSCIENCE IN OVERCOMING ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes human responsibility toward nature in the context of the contemporary ecological crisis. It explores the essence and conceptual foundations of biocentrism and its interrelation with ecological conscience. In particular, the existing environmental problems in our country are examined in connection with national spirituality and the concept of ecological conscience. The study also reveals that legal measures alone are insufficient to resolve environmental issues and overcome the crisis, emphasizing the necessity of increasing social responsibility within society.

Key words: Anthropocentrism, biocentrism, ecological conscience, life-centered approach, environmental ethics, air quality, environmental education.

Kirish. Asrlar davomida odamzod aqliy rivojlanib, fan-texnika tariqiy etib borgani sari o‘zini koinotning yagona ongli mavjudodi, Yer yuzining gultoji sifatida e’tirof eta boshadi. Bu esa bora-bora insoniyat tabiatning mutloq va yagona hukmdori degan qarashlarning chuqur ildiz otishiga olib keldi. Biz dunyoga faqat o‘z manfaatlarimiz nuqtai-nazaridan qaray boshladik. Hattoki, tabiatdagi barcha narsalar inson uchun yaratilgan va faqat uning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi kerak degan g‘oyani ilgari surdik. Ushbu g‘oyalarga asoslangan antroposentristik qarashlar insoniyatning bugungi global ekologik muammolar girdobiga tashladi, ekologik tanglikka duchor etdi. Mana shunday vaziyat odamzodni o‘z o‘rmini qayta ko‘rib chiqishini taqazo etdi. U aslida tabiatning bir qismi sifatida uning hayot zanjiri va qonuniyatlari bilan hisoblashishga majbur ekanligiga amin bo‘la boryapti. XXI asr fan va falsafasi hayotning barcha shakllarini o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim sifatida ko‘ruvchi Biosentrizm nazariyasini ilgari surmoqda. Mazkur yondashuv nafaqat biologik, balki axloqiy mas’uliyat – ekologik vijdon tushunchasini ham qamrab oladi.

O‘zbekistonda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar - iqlim o‘zgarishi, havo ifloslanishi, suv

resurslarining kamayishi, tuproq degradatsiyasi va bioxilma-xillikning qisqarishi - nafaqat iqtisodiy yoki texnologik omillar, balki insonning tabiatga munosabatidagi qadriyatlar tizimi bilan ham bevosita bog‘liq ekanligi tadqiqot davomida asoslab berildi. Ekologik inqirozning ildizi ko‘p jihatdan antroposentrik tafakkur ustuvorligida namoyon bo‘lib, tabiatni faqat resurs sifatida talqin etish amaliyotiga borib taqaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson ekologiyasi, inson va tabiat munosabatlari, biosentrizm kabi masalalar ko‘plab olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Bu borada mamlakatimiz olimlaridan Xamroyev A. [1]ekologik barqarorlik va uning ahamiyati, Hakimov N. [2] inson ekologiyasi va ekologik barqarorlik, ekologik madaniyat tushunchalari tahlil etgan bo‘lsa, xorijiy olim Humphreys R.[3] biosentrizm nazariyasi va uning ahamiyatini, Leopold A.[4] izlanishlarida Yer sayyorasining hayoti, ekologik vijdon masalalarini tahlilini kuzatish mumkin .

Tadqiqotni olib borishda tarixiylik, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni tahliliy tadqiq etish usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Biosentrizm – barcha tirik mavjudodlarni ongli yoki ongsiz bo‘lishidan qat’iy nazar borliq va tabiatning asosi deb biluvchi, faqatgina insoniyat

emas, balki tabiatdagi har qanday hayot shakli (hayvonot va nabobot olami...)ni o'z vazifasi borligi, yashash va rivojlanishga haqli deb hisoblovchi nazariya, qarashdir. Biosentrizm va antroposentrizm - bu insonning tabiatdagi o'rni va unga bo'lgan munosabatini belgilovchi ikki qarama-qarshi dunyoqarash deyish mumkin. Biosentrizm antroposentrizmning antipodi o'laroq insonning hayot zanjirining bir qismi deb biladi. Antroposentrizm barcha narsalar inson va uning manfaatlar uchun xizmat qilishi nuqtai-nazaridan baholansa, biosentrizm hayot va uning davomiyligi qadrlanib, alohida bir turni mutlaq ustunligi tan olinmaydi. Tabiatda foydasiz narsaning o'zi yo'q. Uning muayyan funksiyasi mavjud bo'lib, kichik bir turning yo'qolib ketishi ham tabiiy yo'qotishga qiyoslanadi. Tabiatni barcha mavjudodlarning vatani, makoni deb biladi. Inson tabiatdan cheksiz foydalanish huquqiga ega "xo'jayini" emas, hayotning barcha shakllarini asrashga, ekologik muvozanat va bioxilmaxillikni saqlashga mas'ul bo'lgan ongli va axloqli mavjudoddir.

"Biosentrizm – bu ekologik etika sohasidagi shunday qarashki, u axloq doirasini an'anaviy etikadan ko'ra ancha kengaytirib, barcha tirik mavjudotlarni o'z ichiga oladi".[3] Biosentristik yondashuvda insonning axloqiy sifatleri muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa vijdon masalasi alohida e'tirof etiladi.

Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati kitobida: "Vijdon- insonga xos yuksak ma'naviy fazilat, kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissini anglatuvchi tushuncha" [5]dir deb ta'rif berilgan. Vijdon kishilarni faqat jamiyat ya'ni odamlar oldidagi mas'uliyati bo'lsa, ekologik vijdon bu insonning tabiat oldidagi axloqiy mas'uliyatidir.

Biosentrizm va ekologik vijdon tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqazo etadi. Biosentrizm - bu nazariya va dunyoqarash bo'lsa, ekologik vijdon - bu amaliyot va axloqiy his-tuyg'udir. Ekologik vijdon shakllangan jamiyatda inson tabiatni qonunlar kuchi bilan emas, balki ichki bir ehtiyoj, muhabbat va hurmat bilan asraydi.

Butun sayyoraviy ekologik inqirozdan O'zbekiston ham chetda emas. Global miqyosda iqlimning isishi ta'siridan tashqari, mamlakatimiz ichimlik suvining kamayib borishi, Orol dengizini qurishi va u bilan bog'liq muammolar, shuningdek havo sifatini keskin buzulishi kabilar bugungi kunda mamlakatimizda ekologik holatni yanada og'irlashtirmoqda. An'anaviy ekologik yondashuvlar eskirib, yangisini talab etmoqda. Iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarga asoslangan tabiatni asrashga qaratilgan yondashuvlar o'zini har doim ham oqlamayapti. Mana shunday vaziyatda xalqning tabiat oldidagi ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi "ekologik vijdon"ga bo'lgan ehtiyoj kun tartibidagi asosiy masalaga aylanmoqda.

Ekologik vijdon tushunchasini dastlab Aldo Leopold asarlarida uchratish mumkin. "Vijdonsiz majburiyatlar hech qanday ma'noga ega emas va biz duch kelgan muammo – ijtimoiy vijdonni odamlar doirasidan chiqarib, Yerga (tabiatga) nisbatan ham kengaytirishdir"[4], - deganida olim aynan ekologik vijdon tushunchasini nazarda tutgan edi.

Ekologik vijdon bu insonning tabiat oldidagi mas'uliyati, ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi, ekologiya va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini nazorat qilish vazifasini o'tovchi ichki axloqiy o'lchovdir.

Mamlakatimizdagi hozirgi murakkab ekologik vaziyatni faqat texnologik yoki iqtisodiy nuqtayi nazardan emas, balki "ekologik vijdon" prizmasi orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Aynan shu orqali balki bugungi muammolar sababi va uni bartaraf etish yo'llarini topish mumkin bo'lar.

So'nggi paytlarda O'zbekistonda xususan, Toshkent shahrida havo sifatining pasayib ketishi kuzatilyapti. Bu davlatimiz va aholini xavotirlariga sabab bo'lmoqda. 2024-2025-yillarda bir necha bor poytaxtimiz havo sifatini yomonligi bo'yicha dunyoda 1-o'rinni qayd etdi. Masalan, 2025-yil 20-noyabr kuni Xalqaro havo sifati indeksi (IQAir) [6] tomonidan e'lon qilingan reytingda Toshkent havo sifatini iflosligi bo'yicha 1-o'rinda ekanligi ko'rsatilgan. Buning asosiy sabablaridan biri keng ko'lamli olib borilayotgan qurilishdan chiqayotgan changlar, shaxsiy avtomobillar sonini haddan tashqari ko'payib ketishi, sanoat korxonalari standart bo'yicha chang-gaz tutuvchi filtrlarsiz ishlashi, daraxtlarni yoppasiga kesilishi deyish mumkin. Sanoat korxonalarini filtrsiz ishlashi yoxud filtr o'rnatishni paysalga solishi bevosita tadbirkorni vijdon ishi. Ko'pincha shaxsiy daromad topishga bo'lgan intilish, iqtisodiy tejamkorlikka urinish natijasida ko'p hollarda ijtimoiy salomatlik, jamiyat a'zolari sog'lig'iga jiddiy zarar keltirib qo'yadi. Filtrsiz ishlash natijasida minglab odamlarni zaharlayotganligini bila turib harakatlanish ekologik vijdonni mavjud emasligidan dalolat beradi.

O'ziga qorbanat angidridni yutib, kislarod ishlab chiqaradigan daraxtlarni qirg'in qilinishi ham ekologiyaga jiddiy ta'sir etadi. "Biroq, mas'ul tashkilotlarning amalga oshirilayotgan ishlarga sustkashlik bilan yondashishi hamda ayrim shaxslarning o'simlik dunyosi obyektlariga bo'lgan tajovuzkor harakatlari, shu jumladan daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog'liq holatlar umumekologik vaziyatning yomonlashishiga sabab bo'lmoqda"[7]. Bugungi kunda urbanizatsiya jarayoni kuchayib, qurilishlar avj olayapti. Ko'p hollarda qurilish kompaniyalari qurilish maydonini kengaytirish yoki obyektning estetik ko'rinishiga xalaqit bermasligi uchun daraxtlarni kesib tashlaydi. Eng achinarlisi bunga buyruq bergan shaxs iqtisodiy foyda uchun toza havo manbayini qurbon qiladi. Bu shaxsning ekologik vijdonining mudroqligidir. Bundan tashqari, shaharsoz muxandislar va arxitektorlar binolarni loyihalashtirayotganda faqat sig'imi va tashqi ko'rinishiga emas, shu joyda istiqomat qiladigan odamlarning ekologik muhitini ham hisobga olishlari lozim. Agar ekologik vijdon bo'lsa, soha mutaxassislarini tabiat bilan uyg'un holda loyihalar yaratishga undaydi.

Yashayotgan joyimizga befarqlik kuchayib boryapti. O'zbekiston suv resurslari taqchil davlatlar qatoriga kiradi, ammo suvdan foydalanish madaniyati hali ham juda past. Ichimlik suvidan tomorqalarni sug'orish yoki avtomobillarni yuvishda foydalanish oddiy aholi orasida ham ekologik vijdonni so'roq ostiga qo'yadi. Oddiy jo'mraklardan bekorchi suvni oqib yotishiga e'tibor ham bermaydi. Yana bir nozik masala, qishloq xo'jaligida hali to'liq tomchilatib sug'orishga o'tilmadi. Hanuzgacha eskicha yondashuvlar mavjud. Suvga hech qachon tugamaydigan resurs deb qarash vijdonsiz iste'molchilik madaniyatini shakllantirgan. Orol fojeasi bizga tabiatning vijdonsiz munosabatga qanday javob berishini ko'rsatdi, ammo biz bundan hali ham xulosa chiqarganimiz yo'q.

Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishda faqat jarimalarni qo'llash, jazo choralarini kuchaytirish kutilgan natijani bermaydi. Masalan, bir dona daraxt kesgani uchun berilgan jarima to'langani bilan ushbu daraxtning ellik yillik ekologik xizmatini qoplab bo'lmaydi. Avvalo ekologik tarbiyani kuchaytirish lozim. Ekologik vijdonni uyg'otish bog'cha yoshidan boshlanishi shart. Maktablarda ekologik ta'limni Tarbiya fani tarkibiga chuqur integratsiya qilish lozim. Farzandlarimizga shu darajada ekologik tarbiyani singdirish kerakki, tabiatga zarar yetkaziladigan har qanday holatga murosasiz shaxs bo'lib yetishishsin. Tabiatni ona kabi muqaddas deb biladigan, ekologik vijdoni uyg'oq avlod shakllansin. Biznesni yuritishda ehtimol "ekologik vijdon reytingi"ni joriy etish ham samara berar.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolarni hal qilishda faqat huquqiy-meyoriy mexanizmlar yetarli emas. Qonunchilik, davlat dasturlari va texnologik innovatsiyalar samaradorligi jamiyatning ekologik madaniyati va ekologik ong darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli ekologik siyosatni amalga oshirishda ma'naviy-ma'rifiy omillar, ekologik tarbiya va qadriyatlar tizimini transformatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning bugungi ekologik qiyofasi – bu bizning umumiy vijdonimiz ko'zguvidir. Havo iflosligi, suv tanqisligi va daraxtsiz ko'chalar bizning tabiatga bo'lgan munosabatimizning natijasidir. Ekologik vijdon uyg'onmas ekan, har qanday iqtisodiy va huquqiy yechim vaqtinchalik bo'lib qolaveradi. Zero, xalqimiz aytkanidek, Tabiat ona, mehribon va sahiy, uni asrang-avaylang, e'zozlang boqiy.

ADABIYOTLAR

1. Xamroyev A. Ijtimoiy davlat va ekologik barqarorlik. - Toshkent: Iqtisod-siyosat, 2021.
2. Nazar Hakimov/ Human ekologi. Monography/ Lambert/ London. Unaited Kingdom. 2023.p.235.
3. Humphreys, R. (2014) Biocentrism, encyc, Revised, final. <https://repository.uwtsd.ac.uk/id/eprint/892/>
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi T.: 2010, B.108
5. Leopold, A. (1949). A Sand County Almanac and Sketches Here and There. Oxford University Press.
6. <https://www.iqair.com/ru/uzbekistan/toshkent-shahri/tashkent>
7. Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.12.2021 yildagi PF-46-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5801444>
8. Bayeshanov, A. (2025). Inson ekologiyasi: tabiat va inson uygunligi. Академические исследования в современной науке, 4(36), 35-38.